


XORAZM VILOYATIDAGI KORXONALAR VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra 20189 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 22,4 foizga o'sgan. Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3584 ta (23,1 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 19151 tani tashkil etgan.




Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 26,9 % savdo, 16,5 % sanoat, 9,3 % qurilish, 9,1 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,6 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,6 % tashish va saqlash, 2,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,3 % axborot va aloqa hamda 24,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxonalar va tashkilotlar**

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Tumanlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxonalar va tashkilotlar**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Urganch shahri (4831 ta), Urganch tumani (2206 ta), Xiva shahri (1788 ta), Xiva tumani (1681 ta) va Xonqa tumani (1554 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yangibozor (899 ta), Shovot (1017 ta) hamda Bog'ot (1061 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 19151 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3584 ta (23,0 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Urganch shahri (4460 ta), Urganch tumani (2083 ta), Xiva shahri (1707 ta), Xiva tumani (1541 ta) va Xonqa tumani (1531 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yangibozor (878 ta), Shovot (958 ta) hamda Bog'ot (1008 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil yanvar oyida 591 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 31,2 foizga kamdir. Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Urganch shahri (102 ta), Yangibozor (87 ta), Xiva shahri (55 ta) va Urganch (46 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Shovot (22 ta), Hazorasp (31 ta), Yangiariq (34 ta) va Xonqa (41 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

2020-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**2020-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Qishloq, o'rmon
va baliq xo'jaligi
99



Sanoat
117



Qurilish
41



Savdo
202



Tashish va
saqlash
20



Yashash va
ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar
39



Axborot va
aloqa
11



Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmatlar
ko'rsatish
14




Boshqa turlar
48

Yangi tashkil etilgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (202 ta), sanoat (117 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (99 ta) va qurilish (41 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa (11 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (14 ta) hamda tashish va saqlash (20 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra 16079 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar - 5013 ta, oilaviy korxonalar - 2678 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 8125 ta va boshqalar 263 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 15986 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 27,5 % ga oshgan.

Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	<i>shundan:</i>	
		Kichik korxonalar	Mikrofirmalar
Xorazm viloyati	15986	934	15052
Urganch sh.	3766	323	3443
Xiva sh.	1574	55	1519
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	778	41	737
Gurlan	992	64	928
Qo'shko'pir	968	33	935
Urganch	1807	129	1678
Hazorasp	1109	57	1052
Xonqa	1280	77	1203
Xiva	1330	38	1292
Shovot	723	48	675
Yangiariq	951	32	919
Yangibozor	708	37	671


2020-yil 1-fevral holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tumanlar kesimida jamidagi ulushi, %
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya’ni 3766 tasi (23,6 %) Urganch shahri, 1807 tasi (11,3 %) Urganch tumani, 1574 tasi (9,9 %) Xiva shahri hamda 1330 tasi (8,3 %) Xiva tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.










Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan jami 15986 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 5148 ta (32,2 %) - savdo, 3143 ta (19,6 %) - sanoat, 1767 ta (11,1 %) - qurilish, 1716 ta (10,7 %) - qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 1237 ta (7,7 %) - yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasi, 680 ta (4,3 %) - tashish va saqlash, 354 ta (2,2 %) - sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 231 ta (1,4 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 1710 tasi (10,8 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020-yil yanvar oyida 586 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 244 taga kamdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Urganch shahri (101 ta), Yangibozor tumani (87 ta), Xiva shahri (54 ta), Urganch tumani (46 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Shovot (22 ta), Hazoras (31 ta) hamda Yangiariq (34 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

2020-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %.
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 16,8 %		Tashish va saqlash 2,4 %
	Sanoat 19,7 %		Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 6,6 %
	Qurilish 6,9 %		Axborot va aloqa 1,8 %
	Savdo 34,4 %		Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish 2,3 %
	Boshqa turlar 8,1 %		

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo 202 ta, sanoat 116 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 99 ta va yashash va qurilishda 41 ta tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa 11, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 14 ta hamda tashish va saqlashda 20 ta tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra 2801 tani tashkil etib, ulardan 2678 tasi yoki 95,6 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 95,4 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalarning soni to'g'risida ma'lumot, birlikda

	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	2020-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan
Xorazm viloyati	2801	2678	219
Urganch sh.	517	482	18
Xiva sh.	362	348	30
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	176	167	22
Gurlan	104	104	10
Qo'shko'pir	276	261	14
Urganch	368	348	13
Hazorasp	56	54	7
Xonqa	310	308	23
Xiva	202	193	8
Shovot	99	93	5
Yangiariq	205	199	26
Yangibozor	126	121	43

Oilaviy korxonalar soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni tumanlar kesimida soni, birlikda



**2020-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Xorazm viloyati	219	100,0
Urganch sh.	18	8,2
Xiva sh.	30	13,7
<i>tumanlar:</i>		
Bogʻot	22	10,1
Gurlan	10	4,5
Qoʻshkoʻpir	14	6,4
Urganch	13	5,9
Hazorasp	7	3,2
Xonqa	23	10,5
Xiva	8	3,6
Shovot	5	2,3
Yangiariq	26	11,8
Yangibozor	43	19,8

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining asosiy qismi Yangibozor (43 ta), Xiva shahri (30 ta), Yangiariq (26 ta) va Xonqa tumani (23 ta) hissasiga toʻgʻri keladi. Aksincha, Shovot (5 ta), Hazorasp (7 ta), Xiva (8 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish koʻrsatkichi past darajani aks ettirgan.

2020-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi

35,6 %



Savdo

24,2 %



Sanoat

21,0 %



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

10,9 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

2,3 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

0,5 %



Tashish va saqlash

0,5 %



Axborot va aloqa

0,5 %



Qurilish

4,5 %




Boshqa turlar

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 35,6 % yoki 78 tasi savdo, 24,2 % yoki 53 tasi sanoat, 21,0 % yoki 46 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 10,9 % yoki 24 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 2,3 % yoki 5 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,5 % yoki 1 tasi axborot va aloqa, 0,5 % yoki 1 tasi qurilish, 0,5 % yoki 1 tasi tashish va saqlash, hamda 4,5 % yoki 10 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 145 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 67 taga yoki 85,8 % ga o'sgan. Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Urganch shahrida 38 ta (jamidagi ulushi 26,2 %)ni, Urganch tumanida 20 tani (13,7 %) va Xiva shahrida 13 tani (8,9 %) tashkil etgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Yangiariqda 6 tani (4,2 %), Qo'shko'pirda 6 tani (4,2 %) Yangibozorda 7 tani (4,8 %) hamda Hazoraspeda 7 tani (4,8 %) tashkil etgan.


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 87 tasi qo'shma, 58 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining ulushi, %




**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**

	Jami	<i>shundan:</i>	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Xorazm viloyati	145	87	58
Urganch sh.	38	26	12
Xiva sh.	13	8	5
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	9	8	1
Gurlan	9	7	2
Qo'shko'pir	6	4	2
Urganch	20	5	15
Hazorasp	7	2	5
Xonqa	9	5	4
Xiva	10	4	6
Shovot	11	8	3
Yangiariq	6	4	2
Yangibozor	7	6	1

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2020-yil yanvar oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 7 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 taga ko'paygan. Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar asosiy qismi Urganch shahar (2 ta yoki jamidagi ulushi 28,5 %), Urganch tumani (2 ta yoki 28,5 %) va Xiva shahar (2 ta yoki 28,5 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Xonqa (1 ta yoki 14,2 %) tumani hissasiga to'g'ri keladi.


2020-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Turkmaniston rezidentlari kapitali ishtirokida 2 ta, Rossiyaning 1 ta, Turkiyaning 2 ta, AQSHning 1 ta va Shveysariyaning 1 ta korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan 2 ta savdo, 1 ta qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1 ta qurilish, 1 ta sanoat, 1 ta yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar va 1 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

2020-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital
ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, foizda



■ Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

■ Sanoat

■ Qurilish

■ Savdo

■ Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

■ Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

Statistik registrlarni yuritish bo'limi
(62) 224-65-11